So'nggi yillarda O'zbekistonda ham bank-moliya tizimini tubdan isloh qilish, moliyaviy sektorning barqarorligini ta'minlash, banklar faoliyatida bozor mexanizmlarini keng joriy etish, xususi sektor ishtirokini oshirish hamda xalqaro moliyaviy standartlarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bank xizmatlarini raqamlashtirish, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va investitsiya muhitini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar banklarning investitsion imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bunday o'zgarishlar iqtisodiyotning real sektorini uzoq muddatli moliyalashtirish hajmini oshirish hamda investitsion faollikni rag'batlantirish uchun muhim asos yaratmoqda.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan yashil moliyalashtirish (green finance), ESG (Environmental, Social and Governance) mezonlarini investitsiya siyosatiga integratsiya qilish, barqaror rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish kabi zamonaviy tendensiyalar banklar investitsion faoliyatining yangi yo'nalishlariga aylanmoqda. Ushbu jarayonlar investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur sharoitda banklarning investitsion faoliyatini zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar asosida tahlil qilish, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini baholash hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bank islohotlarining investitsiya jarayonlariga ta'sirini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

T. Thoa va N. Uyen fikriga ko'ra, bank tizimida amalga oshiriladigan islohotlar bank investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bank sektorida raqobatning kuchayishi, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi va moliyaviy vositachilik samaradorligining oshishi natijasida korxonalarning investitsiya qarorlari ichki pul oqimlariga kamroq bog'liq bo'lib qoladi. Mualliflar ta'kidlashicha, bank tizimining liberallashtirish moliyaviy cheklavlarni kamaytiradi, xususi sektor investitsiyalarini rag'batlantiradi hamda kapital resurslarining samaraliroq taqsimlanishiga xizmat qiladi [1]. Shu bilan birga, davlat korxonalarida investitsiya samaradorligini oshirish uchun bank islohotlari bilan bir qatorda korporativ boshqaruvni takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

R. Levine moliyaviy tizim va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab, rivojlangan bank tizimi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, banklar jamg'armalarni samarali safarbar etish, kapitalni eng istiqbolli loyihalarga yo'naltirish, investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlarini kamaytirish hamda risklarni diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy faollikni oshiradi. Muallif moliyaviy tizimning rivojlanishi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratishini qayd etadi [2]. Natijada investitsiya hajmining ortishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtiradi va mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

A. Agarwal, G. Hale va P. Krishnamurthy fikriga ko'ra, xalqaro banklarning rivojlanayotgan mamlakatlar moliya bozorlariga ta'siri makroiqtisodiy va makroiqtisodiy kanallar orqali namoyon bo'ladi. Ularning ta'kidlashicha, global banklar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy resurslar kreditlash hajmini kengaytiradi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshiradi va bank sektorining likvidligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, xalqaro moliya bozorlaridagi beqarorlik, foiz stavkalarining o'zgarishi yoki global inqirozlar rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimi orqali investitsiya faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [3]. Mualliflar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun samarali bank nazorati, risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish va bank tizimining barqarorligini oshirish zarurligini ta'kidlaydilar.

M. Sultanov fikriga ko'ra, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish iqtisodiyotning real sektoriga moliyaviy resurslarni samarali yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega. Muallif banklarning investitsion imkoniyatlarini oshirish uchun kapital bazasini mustahkamlash, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, banklarning investitsiya faoliyatini takomillashtirish moliya bozorining barqarorligi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4].

S. Tashmatov fikriga ko'ra, bank faoliyatini rivojlantirish zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va bank xizmatlari samaradorligini oshirish bilan bog'liqdir. Muallif bank tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, raqobat muhitini kuchaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilash zarurligini qayd etadi. Uning tadqiqotlari bank tizimining rivojlanishi iqtisodiy faollikni oshirish va moliyaviy vositachilik samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi [5].



B. Kamiljanov va hammualliflar fikriga ko'ra, tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarining jozibadorligini baholash moliyalashtirish samaradorligini ta'minlashning muhim shartidir. Mualliflar investitsiya loyihalarini tanlashda moliyaviy samaradorlik, risklarni baholash va bozor sharoitlarini kompleks tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, samarali investitsiya siyosati bank daromadlilikini oshirish bilan birga iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishga yordam beradi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklari investitsion faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini o'rganishda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, guruhlash va iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Toshkent" Respublika fond birjasi ma'lumotlari asosida 2021–2025-yillar kesimidagi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Shuningdek, tijorat banklari investitsion portfelini tarkibidagi o'zgarishlar, fond bozorida bitimlar hajmi va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi qiyosiy baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchlilikini ta'minlash maqsadida umumlashtirish, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining investitsion faoliyati bank resurslarini turli moliyaviy instrumentlar va real iqtisodiy loyihalarga joylashtirish orqali daromadlilikni oshirish, likvidlikni ta'minlash hamda iqtisodiyotning rivojlanish jarayonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Bank investitsiyalari nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, balki kapital bozorining rivojlanishi va iqtisodiyotga investitsiya oqimlarini kengaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bank investitsiyalari yo'nalishlari va moliyaviy instrumentlarning xususiyatlariga ko'ra bir necha turlarga ajratiladi (1-rasm).

Davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar	banklarning davlat tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qarz instrumentlariga mablag' joylashtirish shakli bo'lib, ular odatda past riskli va barqaror daromad manbai hisoblanadi.
Korporativ obligatsiyalarga investitsiyalar	tijorat banklarining korxonalar va tashkilotlar tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlariga mablag' kiritishi bo'lib, yuqori daromad olish imkonini beradi, biroq kredit risklarini baholashni talab qiladi.
Aksiyalarga investitsiyalar	banklarning korxonalar aksiyalarini sotib olish orqali kapitalda ishtirok etishi bo'lib, dividend daromadi va aksiyalar qiymati oshishidan foyda olish imkonini yaratadi.
Lizing va loyiha moliyalashtirish investitsiyalari	banklarning korxonalar faoliyati uchun uskunalar, texnika va yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish orqali real sektor rivojiga yo'naltirilgan investitsiya shaklidir.
Venchur investitsiyalar	innovatsion va yuqori texnologiyali startap loyihalarga yo'naltirilgan, yuqori risk bilan birga katta daromad olish imkoniyatini beruvchi investitsiya turidir.

1-rasm. Bank investitsiya yo'nalishlari va moliyaviy instrumentlarining xususiyatlariga ko'ra turlari¹

Davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ obligatsiyalar va aksiyalarga investitsiya kiritishning ijobiy jihati shundaki, ular banklarga qisqa va o'rta muddatda daromad olish, aktivlar likvidligini boshqarish hamda investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Ayniqsa, davlat qimmatli qog'ozlari nisbatan past riskli bo'lib, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyaviy investitsiyalar bozor konyunkturasi, foiz stavkalari dinamikasi, emitentlarning moliyaviy holati hamda aksiyalar narxlarining o'zgarishlarini hisobga olgan holda investitsiya portfelini samarali boshqarish va risklarni zamonaviy usullar asosida baholash imkonini yaratadi.

Lizing va loyiha moliyalashtirishning asosiy afzalligi iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va uzoq muddatli daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatidir. Shu bilan birga, real investitsiyalar katta hajmdagi mablag' talab qilishi, investitsiya loyihalarini

1 Manba: muallif ishlanmasi.




amalga oshirish muddati uzoq davom etishi hamda loyiha samaradorligi bilan bog'liq risklarning mavjudligi ularning asosiy kamchiliklari hisoblanadi. Venchur investitsiyalar esa innovatsion investitsiyalar sifatida alohida yo'nalishga ajratilib, yuqori darajadagi risk evaziga katta daromad olish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy sharoitda tijorat banklarining investitsion faoliyati an'anaviy moliyaviy instrumentlar bilan cheklanib qolmay, balki raqamli texnologiyalar, yashil moliyalashtirish, ESG tamoyillari, innovatsion loyihalar va barqaror rivojlanish yo'nalishlari bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu jarayon banklarning investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish, risklarni samarali boshqarish va iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Mazkur jarayonlar tijorat banklari investitsion faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bank tizimida investitsion faoliyatni samarali tashkil etish va uning moliyaviy ta'minotini tahlil qilish bugungi kunda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi hamda moliya bozorlarining rivojlanishi sharoitida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. 2021–2025-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklari aktivlari tarkibida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hajmining o'sish dinamikasi bank tizimida investitsion faoliyatning sezilarli darajada kengayib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur jarayon banklar tomonidan aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish, daromad manbalarini kengaytirish hamda likvidlik va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan strategik yondashuvning amaliy natijasi hisoblanadi.

2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda tijorat banklari aktivlari tarkibida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hajmi 19 633,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 102 978,8 mlrd so'mga yetgan. Natijada tahlil qilinayotgan davr mobaynida investitsiyalar hajmi 5,2 barobarga yoki 83 345,1 mlrd so'mga oshgan. Shu bilan birga, mazkur aktivlarning tijorat banklari jami aktivlari tarkibidagi ulushi 2021-yildagi 4,4 foizdan 2025-yilda 11,1 foizgacha, ya'ni 6,7 foiz punktga ko'paygan. Bu holat banklar tomonidan investitsion instrumentlardan foydalanish ko'lami kengayib borayotganini hamda aktivlar tarkibida qimmatli qog'ozlarning ahamiyati ortayotganini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. 2021–2025-yillarda O'zbekiston tijorat banklari aktivlari tarkibida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hajmi² (mlrd. so'm) [7]

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda investitsiyalar hajmi 31 507,9 mlrd so'mga yetib, 2021-yilga nisbatan 60,5 foizga o'sgan, ularning jami aktivlardagi ulushi esa 5,7 foizni tashkil etgan. 2023-yilda investitsiyalar hajmi 32 548,3 mlrd so'mga yetgan bo'lsa-da, ulushi 5,0 foizga pasaygan. Mazkur holat investitsiyalar hajmining kamayganini emas, balki tijorat banklari jami aktivlari yanada yuqori sur'atlarda o'sganini anglatadi. Demak, ushbu davrda kredit portfeli va boshqa aktivlar o'sish sur'ati investitsiyalar o'sishidan yuqori bo'lgan.

2024-yildan boshlab esa banklarning investitsion faolligi sezilarli darajada kuchaygan. Xususan, investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hajmi 59 613,9 mlrd so'mni tashkil etib, bir yil ichida qariyb 83,2 foizga oshgan, ularning jami aktivlardagi ulushi esa 7,7 foizga yetgan. 2025-yilda mazkur ko'rsatkich 102 978,8 mlrd so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 72,7 foizga ko'paygan hamda ulushi 11,1 foizni tashkil etgan. Bu esa tijorat banklari investitsiya portfelining jadal kengayib borayotganini va investitsion faoliyat bank aktivlarini joylashtirishning muhim yo'nalishiga aylanayotganini tasdiqlaydi.

2 Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Mazkur o'sish tendensiyasi, bir tomondan, davlat qimmatli qog'ozlari bozorining rivojlanishi, kapital bozorini liberallashtirish va bank sektorida olib borilayotgan institutsional islohotlar bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, tijorat banklarining daromadlilikni oshirish, aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish hamda kredit risklarini muvozanatlashtirishga qaratilgan investitsion strategiyalarining takomillashib borayotganini anglatadi. Ayniqsa, investitsiyalar ulushining 2025-yilda ikki baravardan ko'proq oshishi banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki tobora faollashayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2021–2025-yillar davomida tijorat banklari aktivlari tarkibida investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar ulushining barqaror o'sishi O'zbekiston bank tizimida investitsion faoliyatning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tayotganini ifodalaydi. Mazkur tendensiya banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, aktivlar sifatini yaxshilash hamda kapital bozorini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, investitsiya portfelini boshqarishda risklarni baholash tizimini yanada takomillashtirish, investitsiyalar samaradorligini muntazam monitoring qilish va xalqaro standartlar asosida portfelni boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish bank tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib qoladi.

Keltirilgan ma'lumotlar tijorat banklari aktivlari tarkibining 2021–2025-yillardagi dinamikasini ko'rsatadi. Umumiy aktivlar hajmi 444,9 trln so'mdan 924,8 trln so'mga yetib, qariyb 2,1 barobarga oshgan. Bu bank tizimida moliyaviy resurslar bazasining sezilarli kengayganini bildiradi. 2021–2025-yillarda tijorat banklari aktivlari tarkibida sifat jihatidan muhim transformatsiya yuz bermoqda, bunda investitsiyalar hajmining keskin oshishi banklarning moliyaviy strategiyasida kapital bozori instrumentlari rolini kuchaytirib, risklarni boshqarish va daromadlilikni optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Tijorat banklari aktivlari tarkibida investitsiyalar ulushining ortib borishi ularning fond bozoridagi ishtiroki va investitsion faolligini chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Chunki banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi nafaqat aktivlar tarkibining diversifikatsiyalashuv darajasini, balki kapital bozorining rivojlanishidagi institutsional investorlar sifatidagi o'rnini ham ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, 2021–2025-yillar davomida fond bozoridagi bitimlar tarkibida iqtisodiy tarmoqlar, xususan, tijorat banklari ulushining dinamikasini tahlil qilish ularning investitsion faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval
2021-2025-yillarda fond bozoridagi bitimlar summasi sohalar kesimida³ (mlrd. so'm) [8]

Sohalar nomi	Yillar									
	2021		2022		2023		2024		2025	
	Summa	Ulushi	Summa	Ulushi	Summa	Ulushi	Summa	Ulushi	Summa	Ulushi
Banklar	312,6	24,8	2308,7	47,9	972,0	35,8	6421,3	32,9	6921,3	85,7
Lizing	0,4	0,0	15,1	0,3	13,9	0,5	-	-	625,4	7,7
Sanoat	95,1	7,5	54,0	1,1	108,5	4,0	12247,0	62,7	96,0	1,2
Agrosanoat	40,2	3,2	237,9	4,9	597,7	22,0	20,9	0,1	56,1	0,7
Aloqa	0,3	0,0	0,1	0,0	37,0	1,4	3,7	0,0	5,1	0,1
Sug'urta	36,4	2,9	87,1	1,8	77,2	2,8	16,1	0,1	51,7	0,6
Qurilish	641,2	50,9	1924,4	40,0	17,8	0,7	18,5	0,1	27,7	0,3
Transport	0,0	0,0	0,0	0,0	66,5	2,5	252,8	1,3	122,4	1,5
Energetika	98,9	7,8	19,7	0,4	119,5	4,4	32,5	0,2	33,5	0,4
Mashinasozlik	-	-	-	-	-	-	-	-	105,2	1,3
Ko'chmas mulk	-	-	-	-	-	-	-	-	7,3	0,1
Moliyaviy xizmatlar	-	-	-	-	-	-	-	-	4,4	0,1
Farmatsevtika	-	-	-	-	-	-	-	-	0,2	0,0
Boshqalar	35,3	2,8	169,3	3,5	702,7	25,9	546,9	2,8	22,2	0,3
Jami	1260,5	100	4816,2	100	2712,7	100	19559,7	100	8078,6	100

3 Manba: muallif ishlanmasi.



1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tijorat banklarining fond bozoridagi investitsion faolligi so'nggi besh yil davomida sezilarli darajada o'zgarganligini va kapital bozoridagi institutsional investor sifatidagi mavqei tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. 2021–2025-yillar davomida fond bozoridagi bitimlar tarkibida tijorat banklarining ulushi sezilarli darajada o'zgarib borgan. 2021-yilda banklar tomonidan amalga oshirilgan bitimlar hajmi 312,6 mlrd so'mni yoki jami bitimlarning 24,8 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 2 308,7 mlrd so'mga yetib, ulushi 47,9 foizni tashkil etdi. Mazkur o'sish tijorat banklarining fond bozoridagi investitsion faolligi ortib borayotganini, qimmatli qog'ozlar bozorida bank kapitalining ishtiroki kengayganini hamda investitsion portfelni diversifikatsiya qilishga qaratilgan strategiyalar kuchayganini ko'rsatadi.

2023-yilda banklar bitimlari hajmi 972,0 mlrd so'mga kamaygan bo'lsa-da, ular fond bozori bitimlarining 35,8 foizini tashkil etdi. Ushbu pasayish, avvalo, kapital bozoridagi umumiy faollikning qisqarishi, investitsion resurslarning qayta taqsimlanishi hamda ayrim yirik emitentlar bo'yicha bitimlar hajmining kamayishi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, tijorat banklari fond bozorining eng yirik institutsional investorlaridan biri sifatidagi mavqeini saqlab qolgan.

2024-yilda fond bozorida tub tarkibiy o'zgarish kuzatildi. Jami bitimlar hajmi 19 559,7 mlrd so'mga yetgan bo'lsa, uning 12 247,0 mlrd so'mi yoki 62,7 foizi sanoat tarmog'iga, 6 421,3 mlrd so'mi yoki 32,9 foizi bank sektoriga to'g'ri keldi. Mazkur holat yirik sanoat korxonalari qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmining keskin ortgani natijasida banklar ulushining nisbatan kamayganini ko'rsatadi. Biroq banklar mutlaq qiymat bo'yicha tarixdagi eng yuqori natijalardan biriga erishgan bo'lib, bu ularning investitsion faoliyati izchil kengayib borayotganidan dalolat beradi.

2025-yilda esa fond bozoridagi tarmoq tarkibi yana sezilarli darajada o'zgardi. Tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan bitimlar hajmi 6 921,3 mlrd so'mni tashkil etib, ularning jami fond bozori bitimlaridagi ulushi 85,7 foizga yetdi. Mazkur ko'rsatkich tahlil qilinayotgan besh yillik davrdagi eng yuqori natija hisoblanadi. Natijada bank sektori fond bozorida mutlaq yetakchi mavqega ega bo'lib, boshqa tarmoqlarning ulushi keskin qisqardi. Xususan, lizing sohasi 625,4 mlrd so'm (7,7 foiz) bilan ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, sanoat tarmog'ining ulushi 1,2 foiz, transportning ulushi 1,5 foiz, mashinasozlikning ulushi esa 1,3 foizni tashkil etdi.

Umuman olganda, tahlil natijalari tijorat banklarining investitsion faoliyati so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashganini ko'rsatmoqda. Banklarning fond bozoridagi ulushining 2021-yildagi 24,8 foizdan 2025-yilda 85,7 foizgacha oshishi ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi institutsional investor sifatidagi rolini mustahkamlaganini anglatadi. Bu esa tijorat banklarining aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish, likvidlikni samarali boshqarish, daromadlilikni oshirish hamda kapital bozorining rivojlanishiga faol hissa qo'shish imkoniyatlari kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi holatlar banklarning investitsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, tahlil banklarning fond bozoridagi faolligi va investitsion salohiyati izchil ortib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, bitimlarning asosiy qismi bank sektoriga to'g'ri kelishi banklarning kapital bozoridagi yetakchi institutsional investor sifatidagi mavqeini hamda tarmoqlararo hamkorlikni yanada kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar mavjudligini bildiradi. Kelgusida fond bozorida sanoat, transport, energetika, agrosanoat, sug'urta hamda boshqa real sektor korxonalarining ishtirokini kengaytirish, yangi emitentlarni jalb etish va korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish orqali tijorat banklari investitsion faoliyatining samaradorligini yanada oshirish hamda kapital bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar va kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida tijorat banklarining investitsion faoliyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. So'nggi yillarda banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi ularning nafaqat kreditlash faoliyatini, balki investitsion operatsiyalarni ham daromad manbai sifatida faol rivojlantirayotganligini ko'rsatmoqda. Bu esa bank aktivlarini diversifikatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda kapital bozorining likvidligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish bilan bir qatorda, investitsion qarorlar sifatini oshirish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari investitsiya portfeli tarkibida ayrim moliyaviy instrumentlarning yuqori konsentratsiyasi saqlanib qolmoqda. Investitsiya portfelining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari sharoitida banklarning investitsion risklarini oshirishi mumkin. Shu sababli investitsiya siyosatini takomillashtirishda qimmatli qog'ozlar turlarini kengaytirish, korporativ obligatsiyalar, infratuzilma obligatsiyalari, yashil moliyaviy instrumentlar hamda islomiy moliya vositalariga investitsiyalar ulushini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim. Biroq investitsion faoliyat samaradorligini faqat ichki boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bilangina ta'minlab bo'lmaydi. Shu bois kapital bozori bilan o'zaro integratsiyani chuqurlashtirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari investitsion faoliyatini rivojlantirishning yana bir muhim yo'nalishi investitsiya portfelini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bilan bog'liq. Xususan, investitsion qarorlarni qabul qilishda bozor risklarini kompleks baholash, portfelni optimallashtirish modellari, stress-testlar, Value-at-Risk (VaR)



usullari hamda sun'iy intellektga asoslangan prognozlash tizimlaridan foydalanish investitsiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bunday yondashuv investitsiya qarorlarining asoslanganligini kuchaytiradi hamda bozor tavakkalchiliklarini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirish kapital bozorining real sektor bilan integratsiyasini kuchaytirishni ham talab etadi. Banklar tomonidan sanoat, transport, energetika, agrosanoat va boshqa strategik tarmoqlar korxonalarining qimmatli qog'ozlariga investitsiyalar hajmini oshirish real sektorni uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada iqtisodiyotda investitsiya resurslarining samarali taqsimlanishi ta'minlanadi va ishlab chiqarish salohiyati oshadi. Kapital bozori bilan integratsiyaning samaradorligi esa zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasiga bevosita bog'liqdir.

Bundan tashqari, investitsion faoliyatni rivojlantirishda raqamli transformatsiya jarayonlari muhim o'rin tutadi. Raqamli savdo platformalari, elektron birja tizimlari, Big Data texnologiyalari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan investitsiya platformalaridan foydalanish investitsiya operatsiyalarining tezkorligi va shaffofligini oshirish bilan birga operatsion xarajatlarni kamaytiradi. Bu esa tijorat banklarining fond bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi hamda investitsiya portfelini boshqarish samaradorligini oshiradi.

Yuqorida keltirilgan ustuvor yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi tijorat banklari investitsion faoliyatining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, zamonaviy risk-menejment tizimlarini joriy etish, innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanishni kengaytirish, kapital bozorining real sektor bilan integratsiyasini chuqurlashtirish hamda investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi banklar investitsion faoliyatining daromadliligi va barqarorligini oshirish bilan bir qatorda mamlakat kapital bozorining yanada rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda tijorat banklarining investitsion faoliyati sezilarli darajada faollashgan va ular kapital bozorining asosiy institutsional investorlaridan biriga aylangan. Shu bilan birga, investitsiya portfelini tarkibining bosqichma-bosqich takomillashib borayotgani hamda real sektor qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarni yanada kengaytirish uchun mavjud imkoniyatlar banklarning investitsion salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur yo'nalishlarni yanada rivojlantirish maqsadida investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, korporativ obligatsiyalar va aksiyalarga investitsiyalarni kengaytirish, yashil va islomiy moliyaviy instrumentlardan foydalanishni rivojlantirish, investitsion risklarni zamonaviy baholash usullarini joriy etish hamda investitsiya faoliyatini raqamlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, banklarning fond bozori orqali real sektorni moliyalashtirishdagi ishtirokini yanada kengaytirish kapital bozorining chuqurlashuvi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi ortib, ularning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi yanada mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Thoa T. T. K., Uyen Uyen N. T. Banking system reform and investment–cash flow relation: Case of a small transition economy // *Research in International Business and Finance*. – 2017. – Vol. 41. – P. 500–515. – DOI: 10.1016/j.ribaf.2017.04.038.
2. Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // *Handbook of Economic Growth*. – Amsterdam: Elsevier, 2005. – Vol. 1A. – P. 865–934.
3. Global Banks' Spillovers to Emerging Markets: Macro to Micro Transmission. – arXiv preprint, 2025. – Available at: <https://arxiv.org/abs/2512.01132>.
4. Sultanov M. A. Improvement Ways of the Banks Investment Activity // *Journal of International Finance and Accounting*. – 2023. – №3. – B. 1–11.
5. Tashmatov S. Improvement of Development Mechanisms of Banking Activities // *Economic Development and Analysis*. – 2025. – Vol. 3, Issue 6. – P. 267–275.
6. Kamiljanov B., Mamutova K., Jarilkapova N. Problems and Possibilities of Ensuring the Attractiveness of Investment Projects of Commercial Banks // *Modern Science and Research*. – 2023. – Vol. 2, Issue 11. – P. 718–722.
7. <https://www.cbu.uz>
8. <https://www.uzse.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>